

## XALQARO HUQUQIY MUNOSABATLARDA HUQUQ OILALARI TUSHUNCHASI VA TASNIFI

*Abdulxakimov Xasanboy Orzimurod o‘g‘li*

*Namangan Bavlat universiteti Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro huquqiy munosabatlarda huquq oilalari tushunchasi hamda huquq oilalari hamda ularning turlari, vujudga kelishi tarixi, huquq oilalarining farqli jihatlarini tushunish, xalqaro huquqda nima sababdan huquq oilalarining muhimligi kabi tushunchalarga e’tibor qaratiladi. Xalqaro huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan xalqaro huquq normalarini farqlashda albatta huquq oilalariga duch kelamiz. Ushbu maqolada aynan xalqaro huquqda huquq oilalarini huquqiy ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Xalqaro huquq, Xalqaro huquqiy munosabat, huquq oilasi, huquq oilalari tushunchasi, huquq oilasining turlari, huquq oilalari tasniflarining mohiyati, romano-german huquq oilasi tushunchasi, anglo-sakson huquq oilasi tushunchasi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются такие важные понятия, как понятие семей права в международных правоотношениях и семьи права и их виды, история их возникновения, понимание различных аспектов семей права, причины значения семей права. права в международном праве, нормы международного права, регулирующие международно-правовые отношения, мы обязательно встретим семейства прав в дифференциации. Целью данной статьи является разъяснение правового значения правовых семей в международном праве.

**Ключевые слова:** Международное право, Международные правоотношения, семья права, понятие семьи права, виды семьи права, природа классификаций семей права, понятие романо-германской семьи права, понятие англосаксонской семьи права. закон.

**Abstract:** This article focuses on important concepts such as the concept of families of law in international legal relations and families of law and their types, the

history of their emergence, understanding the different aspects of families of law, the reasons for the importance of families of law in international law, the norms of international law that regulate international legal relations. we will certainly encounter families of rights in differentiation. This article aims to clarify the legal significance of legal families in international law.

**Key words:** International law, International legal relationship, family of law, concept of families of law, types of family of law, nature of classifications of families of law, concept of Romano-Germanic family of law, concept of Anglo-Saxon family of law.

Yer yuzida ko‘plab davlatlar va jamiyatlar mavjud ular esa ma’lum ijtimoiy munosabatlarga kirishadilar. Manashu munosabatlar ma’lum bir huquq normalari va qoidalari bilan tartibga solinadi. Ushbu huquq normalari turli davlatlarda turlicha amal qiladi. Bularning sababini anglashda albatta xalqaro huquqga murojaat qilamiz. Huquq oilalarini ta’riflashdan avval xalqaro huquq normalari va xalqaro huquqiy munosabatlarni tushunish kerak.

1.Xalqaro huquq – bu xalqaro miqqosdagi davlatlar, tashkilotlar, xalqlar hamda xalqaro huquqning boshqa subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan huquq normalari yig‘indisi yokki tizimiga aytildi.

2.Xalqaro huquqiy munosabatlar – bu aynan xalqaro huquq normalari orqali tartibga solinadigan va xalqaro huquq subyektlari o‘rtasida ro‘y beradigan munosabatlarga aytildi. Ana endi mavzuni dolzarb tushunchasi – ya’niy “Huquq oilasi” tushunchasiga ta’rif berish zarur.

Huquq oilasi – bu xalqaro huquqda davlatlarda amal qiluvchi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquq normalarini farqlashda keng tushunish imkonini beruvchi huquq guruhlarini ma’lum turlarga bo‘lib chiqishga hamda tasniflanishiga bog‘liq bo‘lgan tushuncha hisoblanadi. Huquq oilalarini odatda katta uchlikka bo‘lib olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1. “Roman-german yoki kontinental huquq oilasi;
2. Ingiliz-amerika(anglo-sakson) huquq oilasi yoki umumiy huquq tizimi;

3. Diniy-an'anaviy huquqiy oilalariga bo'linadi.

Roman-german yoki kontinental huquq oilasida - sudlarning qonun yaratish huquqini tan olmaydi. U sudlarning qonun chiqaruvchiga aylanishiga qarshi. Shuning uchun asosiy huquq manbayi sifatida u faqat qonunni, konstitutsiyaga va qonunga asosan qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarnigina e'tirof etadi. Bularga misol qilib: Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Italiyani olishimiz mumkin.

Ingiliz-amerika(anglo-sakson) huquq oilasi yoki umumiy huquq tizimida - kontinental «huquqiy oila»dan farq qilib, asosiy huquq manbayi sifatida qonunni emas, balki sud pretsedentini, ya'ni sud qarorida mavjud bo'lgan qoidani e'tirof etadi. Bularga misol qilib: AQSH, Kanada, Avstriya Buyuk Britaniyani olishimiz mumkin.

Diniy-an'anaviy huquqiy oilasida - asosiy huquq manbayi sifatida diniy qoidalarni e'tirof etadi. Bularga misol qilib: Yaponiya, Hindiston, Xitoy va boshqa davlatlarni olishimiz mumkin".<sup>1</sup>

Bu huquq oilalarini alohida tartibda o'rganish zarur.

“Romano-nemis huquq tizimi o‘zining barcha davlatlari uchun qo'llanadigan bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Bu xususiyatlar, albatta, har bir mamlakatda bir xil darajada amalga oshirilmaydi. Bu har bir davlatning tarixiy va madaniy xususiyatlariga bog‘liq: Rim institutlarini qabul qilish har bir suveren shaxs tomonidan alohida amalga oshirildi. Xususan, Rossiya-rossiyalik huquqiy tizimning Rossiya Federatsiyasida ro‘y berayotgani haqida bahs-munozarali. Buning sababi sovet o‘tmishi - milliy qonunchilik bir qator muhim o‘zgarishlarga duchor bo‘lgan davr. O’sha davrdagi huquqiy islohotlarning ahamiyati, ayrim rus va xorijiy tahlilchilar fikricha, Rossiyanı o‘ziga xos turdagı - sotsialistik huquqiy tizim sifatida tasniflashga imkon beradi. Biroq, bu bayonot mohiyatini va adolatini qit'a filialining strukturasini hisobga olish zarurligini tushunish uchun jiddiy tanqid qilinmoqda. Rim-german huquqiy tizimi xususiy va jamoatchilikka bo'lgan huquqni taqsimlash bilan tavsiflanadi. Bu tasnifning mantiqi shundan iboratki,

<sup>1</sup> Davlat va huquq asoslari 10-sinf: O'rta umumta'lim muassasalarining 10-sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini uchun darslik / V. Kostetskiy — Birinchi nashr. — Toshkent.: «Yangiyo'l poligraf servis», 2017. — 14 b

davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar jismoniy shaxslarning o‘zaro munosabatlaridan farq qiladi”.<sup>2</sup>

Anglo-sakson huquq tizimi mamlakatlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sud amaliyotining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan adolat huquqi (inglizcha: law of equity) bilan birgalikda butun Buyuk Britaniya uchun umumiy bo‘lgan yagona pretsedent tizimidir. XIII — XIV asrlarda mahallil odatlar va qirollik sudlarining amaliyoti asosida shakllangan. Sud pretsedenti umumiy huquq tizimida huquqning asosiy manbalaridan biri sifatida tan olingan.

“Umumiy huquq sudyalarning o‘zlari tomonidan muayyan ishlar bo‘yicha qarorlarda yaratiladi va belgilanadi. Qaror ko‘rib chiqilayotgan aniq ish bo‘yicha qabul qilinadi va bu qaror kelgusida boshqa shunga o‘xhash ishlarga nisbatan qo‘llaniladi. Qonunda aniq ta’riflar bo‘limgan taqdirda, sudyalar pretsedent o‘rnatish orqali huquq normasini yaratish vakolatiga va majburiyatiga ega. Pretsedentlar jamlanmasi “umumiy huquq” deb ataladi va kelajakdagi qarorlarni unga bog‘laydi. Keyinchalik, agar ishdagi taraflar qonun nuqtai nazariga rozi bo‘lmasalar, ish sud tomonidan xuddi shunday ish bo‘yicha oldingi pretsedentdan foydalangan holda ko‘rib chiqiladi. Agar o‘tmishda shunga o‘xhash nizo hal qilingan bo‘lsa, sud oldingi qarorlarda qo‘llanilgan asoslarga amal qilishi kerak (bu prinsip pretsedentlarning majburiy kuchi sifatida tanilgan - inglizcha: stare decisis). Biroq, sud ko‘rilayotgan ishning mohiyati avvalgi barcha ishlardan tubdan farq qilishini aniqlasa, u ishni birinchi marta ko‘rilayotgan deb hisoblaydi. Shundan so‘ng, yangi qaror pretsedentga aylanadi va u pretsedentlarning majburiy kuchi prinsipiغا muvofiq kelajakdagi ishlarni bog‘laydi. Amalda umumiy huquq tizimi yuqorida tavsiflangan ideal tizimga qaraganda ancha murakkab. Sud qarorlari faqat ma‘lum bir yurisdiksiyada majburiydir va hatto ma‘lum bir yurisdiktsiya doirasida ham ba’zi sudlar boshqalarga qaraganda ko‘proq vakolatga ega. Masalan, ko‘pchilik yurisdiksiyalarda apellyatsiya instansiysi sudlarining qarorlari bir yurisdiksiyadagi quyi turuvchi sudlar va shu apellyatsiya sudining keyingi qarorlari uchun majburiy bo‘lsa, apellyatsiya instantsiyasi bo‘limgan sudlarning qarorlari esa

<sup>2</sup> UNANSEA jurnali Qonun, Davlat Va Huquq

romano-german-huquqiy-tizimi-huquq-ustunligining-tuzilishi-va-tushunchasi

majburiy emas. Umumiy va konstitutsiyaviy huquqning o‘zaro ta’siri, huquq va qoidalarni belgilash ham katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Biroq, pretsedentlarning majburiy kuchi -shunga o‘xhash ishlarni normalarning bo‘ysunishiga muvofiq hal qilish tamoyili - barcha umumiy huquq tizimlarining markazida yotadi”.<sup>3</sup>

Diniy-an’anaviy huquqiy oilasi – “diniy an’analar tomonidan o‘rgatilgan axloqiy va axloqiy kodekslarni o‘z ichiga oladi. Turli diniy tizimlar o‘zlarining e‘tiqod tizimlari uchun muqaddas qonunni ko‘proq yoki kamroq darajada ahamiyatga ega, ba’zilari aniq antinomiya, boshqalari esa nomistik yoki huquqiy xususiyatga ega. Xusan, hinduizm, islam va buddaviylik dini kabi dinlar ham davlat, ham jamiyat uchun ochiq pozitiv qonun zarurligini o‘rgatadi, nasroniylik kabi boshqa dinlar esa bu zarur yoki ma’qul degan g‘oyani umuman rad etadi va buning o‘rniga abadiylikni ta’kidlaydilar. ilohiy qonunning fuqarolik, tantanali yoki sud jihatni bo‘yicha axloqiy ko‘rsatmalari qonun ustidan inoyat teologiyalarida bo‘lgani kabi bekor qilingan bo‘lishi mumkin. Diniy asosda olingan huquqiy kodekslarga misol qilib, xristian kanon huquqi (cherkovda kengroq ilohiyot tushunchasi doirasida qo‘llaniladi, ammo hozirgi zamonda dunyoviy davlat huquqidan farq qiladi, yahudiy halaxi, islam shariati va hindu qonuni”.<sup>4</sup> Ushbu huquqiy oilalar bir holda faqat qonunlarga, boshqa holda pretsedentlarga, ya’ni sud qarorlariga, uchinchi holda diniy-huquqiy me’yorlarga asoslansa-da, hayot ularga nisbatan shunday talablarni qo‘yadiki, ularni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Shuning uchun huquqiy oilalar qonunlarini sud pretsedenti qoidalari bilan, diniy-huquqiy me’yorlarni esa qonun va kodekslar bilan ancha moslashuvchan holda biriktiradi. Mazkur hodisalar davlat qonunlarni yaratish ekan, hayot talablari bilan hisoblashishga majburligi va shartligini isbotlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki xalqaro huquqda xalqaro huquq normalari turlicha sababi esa bu uzoq tarixga hamda davlatlarning geografik shakllanishi hamda axloqiy qarashlariga bog‘liq. Huquq oilalarida qaysi huquq normasi huquqni asosiy

<sup>3</sup> Grafskiy V.G. Huquq va davlatning umumiy tarixi. Moskva: NORM, 2001 yil – 283 bet

<sup>4</sup> "SUMMA TEOLOGIYASI: Eski qonunning axloqiy qoidalari (Prima Secundae Partis, Q. 100)". www.newadvent.org. Olingan 19-03-2020

manbaasi ekanligini bilib olish zarur. Huquq oilalari davlatning huquq banbalariga bog‘liq holatlarni ham ifoda etadi. Aynan huquq oilalarida yuridik president va huquq manbaalari haqida gap boradi. Huquq oilasi xalqaro huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi ko‘plab huquq normalari va qoidalarini turlanishini ko‘rsatadi. Demak huquq oilalarini o‘rganayotganda xalqaro huquqga murojaat etmaslikni iloji yo‘q. Hozirgi kunga kelib huquq oilalari turlarini o‘rganish va ularni bir – biridan farqli xususiyatlarini farqlashga va ularni chuqur ifodalashga qaratilgan. Yakuniy xulosa shundan iboratki, huquq oilasi va xalqaro huquqdagi ayrim normalar va huquqiy qoidalar hali ham yopiqligicha qolmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Xalqaro huquq. Darslik.Y.F.N, prof.G.Yuldasheva.TDYU nashriyoti, 2018.
2. . Xalqaro huquq.Akmal Saidov.”Adabiyot jamg’armasi”.2001-yil.
3. Akbarali O‘g‘li, Satvoldiyev Fakhridin. “PROSPECTS FOR IMPROVING THE TECHNOLOGIES OF DEVELOPING LEGAL THINKING FOR SCHOOLCHILDREN (ON THE EXAMPLE OF THE PROVINCE OF NAMANGAN).” CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 4.01 (2023): 94-97.
4. Akbarali O‘g‘li, Satvoldiyev Fakhridin. “Maktab o‘quvchilarining huquqiy tafakkurini shakllantirish huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yetakchi bo‘g‘ini sifatida.” Ta’lim fidoyilari 13 (2022): 225-228.
5. Scharf, Michael P. (en). ASIL Insights. The American Society of International Law.1998.08.01.
6. The Practitioner’s Guide to International Law. The Law Society of New South Wales (New South Wales Young Lawyers International Law Committee). 2014.
7. Davlat va huquq asoslari 10-sinf: O‘rta umumta’lim muassasalarining 10-sinflari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun darslik / V. Kostetskiy — Birinchi nashr. — Toshkent.: «Yangiyo‘l poligraf servis», 2017
8. Odilqoriyev.X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.Toshkent Adolat.2018.
9. Xasanboy Abdulkakimovning ijtimoiy tarmoqdagi shaxsiy telegram sahifasi “HUQUQ (Xasanboy Abdulkakimov) POLITIK blog” - <https://t.me/huquqdars>
10. <https://uz.wikipedia>
11. [https://Umumiyl\\_huquq\\_\(huquqiy\\_tizim\)](https://Umumiyl_huquq_(huquqiy_tizim))
12. Akbarali O‘g‘li, Satvoldiyev Fakhridin. "Organization of experimental work and analysis of results on the improvement of technologies for improving the effectiveness of legal education and training of schoolchildren." *Frontline Social Sciences and History Journal* 3.04 (2023): 54-61.
13. Satvoldiyev Fakhridin Akbarali O‘g‘li. "Maktab o‘quvchilarining huquqiy tafakkurini shakllantirish huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yetakchi bo‘g‘ini sifatida." Ta’lim fidoyilari 13 (2022): 225-228.
14. Satvoldiyev Fakhridin Akbarali O‘g‘li, . (2023). PROSPECTS FOR IMPROVING THE TECHNOLOGIES OF DEVELOPING LEGAL THINKING FOR SCHOOLCHILDREN (ON THE EXAMPLE OF THE PROVINCE OF NAMANGAN). CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(01), 94–97. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-01-14>